

SHAXS PSIXOLOGIYASI

Yamanova Zebiniso Rahmatullayevna

Navoiy viloyati Xatirchi tumani

77-umumiy o'rtta maktabi amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada shaxs psixologiyasi muammolari va ularning tahliliy nazariy asoslari yoritib berilgan. Unda shaxsning rivojlanish bosqichlari, o'ziga xosligi, shaxsning ijtimoiylashuvi va uning ustanovklari, psixologiyada shaxs muammosi talqini Shaxs psixologiyasi metodini tushunish umumiy psixologiya va sosiologiya predmetini tushunishga bog'liqligi keltirib o'tilgan. Shu sababdan ushbu kichik tadqiqot amaliy va umumiy psixologiya tizimida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar va pedagogika-psixologiya fakultetida tahsil olayotgan talabalar, tarbiyachilar va ota-onalar uchun muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: *Individ, shaxs, individuallik, shaxsning faolligi, ehtiyoj motiv, qiziqish, istak, ta'lim – tarbiya, shaxsiy faoliyat, shaxsning malaka va odatlari.*

PERSONAL PSYCHOLOGY

Yamanova Zebiniso Rahmatullayevna

Practitioner psychologist of the 77th comprehensive school of

Khatirchi district of Navoi region

ABSTRACT

This article describes the problems of personality psychology and their analytical theoretical foundations. In it, the stages of personality development, individuality, socialization of personality and its principles, the interpretation of the personality problem in psychology, the understanding of the method of personality psychology, and the understanding of the subject of general psychology and sociology are mentioned. For this reason, this small study is important for specialists working in the system of applied and general psychology, students studying at the faculty of pedagogy and psychology, educators and parents.

Keywords: *Individual, person, individuality, individual activity, need, motive, interest, desire, education, personal activity, skills and habits of a person.*

ЛИЧНАЯ ПСИХОЛОГИЯ

Яманова Зебинисо Рахматуллаевна

Практический психолог 77-й общеобразовательной школы
Хатырчинского района Навоийской области

АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны проблемы психологии личности и их аналитическая теоретическая основа. В ней упоминаются этапы развития личности, индивидуальность, социализация личности и ее принципы, трактовка проблемы личности в психологии, понимание метода психологии личности, понимание предмета общей психологии и социологии. По этой причине данное небольшое исследование актуально для специалистов, работающих в системе прикладной и общей психологии, студентов факультета педагогики и психологии, педагогов и родителей.

Ключевые слова: *Индивид, человек, индивидуальность, индивидуальная деятельность, потребность, мотив, интерес, желание, образование, личная активность, навыки и привычки человека.*

KIRISH

Har bir odam tug`ilgan kunidan boshlab odamlar qurshovida, ma`lum jamoada - oilada yashaydi. Jamiyatda rivojlanuvchi, til yordamida boshqa odamlar bilan munosabatga kirishuvchi odam shaxsga – voqelikni biluvchi hamda uni o`zgartiruvchi sub`ektga aylanadi. Odam bolasini individ deyiladi. Biz hamma kishilarni - normal odamlarni, yangi tug`ilgan chaqaloqni, aqli zaiflarni individ degan tushunchaga kiritamiz. Ammo ularning hammasini shaxs deb atay olmaymiz. Biz jamiyatda biror foydali mehnat bilan shug`ullanuvchi kishini shaxs deymiz. Odamni shaxs sifatida tevarak - atrofdagi kishilar va narsalar bilan bo`lgan aloqalari ularning ishlab chiqarish faoliyatlarida, odamlar o`rtasida yuzaga keladigan munosabatlarda namoyon bo`ladi. Odam boshqa kishilar bilan bo`lgan munosabatlardagina shaxs bo`lib shakllana boshlaydi. Demak, shaxs kishilik jamiyatida yashaydigan, faoliyatni biror turi bilan shug`ullanadigan, til orqali atrofdagilar bilan normal muloqotda bo`la oladigan, ongi yuksak rivojlangan komil insondir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta`lim to`g`risida qonun, Sh.Mirziyoev asarlari, mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo`llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Inson shaxsining eng muhim tomonlaridan biri uning individualligidir. Individuallik - bu shaxsning bir necha fazilatlarining qaytarilmaydigan birikmasidir. Uning tarkibiga xarakter (tabiat), temperament (mijoz) qobiliyatlar, hissiyotlar yig`indisi, odatlar kiradi. Odam turli guruhlariga kirar ekan, har xil vazifalarni bir - biriga o`xshamagan rollarni bajaradi. Ba`zi bolalar oilada erkatoy, injiq bo`lsa, maktabda tengdoshlari o`rtasida kamtarin, odobli, xushchaqchaq bo`ladi. Ishda juda jiddiy yuradigan odam biror sayohatga borganda hazilkash, qiziqchi bo`lib yurishi mumkin. Ko`pincha kishi turli vaziyatlarda o`xshash sifatlarni namoyon qiladi.

Bizning jamiyatimizda shaxsga beriladigan tavsifnoma uning rivojlangan jamiyat qurish jarayoniga bo`lgan munosabati va bu jarayonda real qatnashishi bilan belgilanadi. Odamning psixik holatlarini o`zgarishi tashqi muhitga va ijtimoiy tarbiyaga bog`liqdir. Shaxsning nisbatan barqaror va nisbatan o`zgaruvchan xususiyatlari shaxs xislatlarining bir butunligi va o`zaro bog`liqligidan iborat bo`lgan murakkab birlikni, ya`ni dinamik tuzilishni hosil qiladi.

Shaxsni psixologik jihatdan o`rganish o`z tarkibiga ikki asosiy ilmiy masalani hal qilishni oladi:

1. Har bir shaxsni boshqa odamlardan ajratib turadigan individual tuzilishini aniqlash. Bu xulq - atvorni oldindan ko`ra olish imkonini beradi.

2. Inson shaxs tuzilishining bir necha qismlarini ajratib ko`rsatishni talab etadi. Bu qismlarning yig`indisi inson shaxsini hosil qiladi. Hozirgi zamon chet el psixologiyasida ikkita omil, ya`ni biologik va ijtimoiy omillarning ta`siri bilan tarkib topgan inson shaxsida ikkita asosiy qismlarni ajratuvchi nazariya ko`zga ko`rinarli o`rinni egallamoqda. Inson shaxsi "Endopsixik" (ichki) va "Ekzopsixik" (tashqi) a`zolariga bo`linadi, degan fikr ilgari surilgan edi. Tabiiy asosga ega bo`lgan "endopsixika" biologik shart - sharoitlarga bog`liq, "ekzopsixika" ijtimoiy omillarga bog`liqdir. Ikkala omil nazariyasining xatoligi shundaki, bu nazariya ijtimoiy omil bilan biologik omilni, muhit bilan biologik tuzilishni, "ekzopsixika" bilan "endopsixika" ni mexanik ravishda bir - biriga qarama - qarshi qilib qo`yadi. Biroq shaxsning tarkib topishi, tuzilishiga ta`sir qiluvchi tabiiy va ijtimoiy omillar masalasiga yondoshishning boshqa imkoniyatlari ham bor. Masalan, shunday tadqiqot o`tkazilgan: tadqiqotda bo`yi 80 - 130 sm. dan oshmaydigan kishilar shaxsining tuzilishida ko`p jihatdan o`xshashlik borligi aniqlangan. Ularda bolalarcha soddalik, yuksak chidamlilikni, uyat degan narsaning yo`qligini ko`rish mumkin ekan.

Shaxs o`zining faoliyati tufayli tevarak-atrofdagi olam bilan faol munosabatda bo`ladi. Shaxsning faolligi deganda odamning atrofdagi tashqi muhitga ko`rsatadigan ta`siri tushuniladi. Tashqi muhit bilan faqat odamlar emas, hayvonlar ham o`zaro

munosabatda bo`ladilar. Lekin hayvonlar tashqi muhitga moslashib yashaydilar, odamlar esa tashqi muhitga moslashib qolmasdan, uni o`zgartirishga ham qodirlar. Shaxsning faolligi uning turli qiziqishlarida, ehtiyojlarida namoyon bo`ladi. XX asr boshlarida yashagan avstriyalik psixiatr Z.Freyd shaxs faolligini quyidagicha tushuntiradi: “Odam o`zining avlodlaridan nasliy yo`l bilan o`tgan instinktiv mayllarning namoyon bo`lishi tufayli faoldir. Instinktiv mayllar asosan jinsiy instinktlar shaklida namoyon bo`ladi”. Freyd shaxsning faolligini jinsiy mayllar bilan bog`laydi. Shaxsning faolligini hozirgi zamon ilmiy psixologiyasi to`g`ri hal qilib beradi. Ularning fikricha, inson shaxsiy faolligining asosiy manbai uning ehtiyojlaridadir. Odamning ehtiyojlari faollik ko`rsatishga undaydi. Ehtiyoj - shaxs faolligining manbai sifatida namoyon bo`ladigan va uning aniq yashash sharoitiga bog`liqligini ifodalovchi holatdir. Ehtiyojlar paydo bo`lishiga ko`ra, moddiy (tabiiy) va ma`naviy (madaniy) ehtiyojlarga bo`linadi. Moddiy ehtiyojlarga uxlash, jinsiy yashash, ovqat eyish, issiq va sovuqdan saqlanish, uy - joyga bo`lgan ehtiyojlar kiradi. Ma`naviy ehtiyojlarga kishilarning ijtimoiy ong mahsulotlariga bo`lgan muhtojligi kiradi. Bunday ehtiyojlarga - o`zaro suhbatlashish, kitob o`qish, kino - teatr tomosha qilish, musiqa tinglash kabilar kiradi. Biz moddiy ehtiyojlarimizni madaniy ehtiyojlar asosida qondiramiz. Moddiy va ma`naviy ehtiyojlar albatta qondirilishi shart.

Inson shaxsining faolligi uning qiziqishlarida ham namoyon bo`ladi. Qiziqish-shaxsning oliy nerv faoliyatidagi narsa va hodisalarni bilishi, anglash istagi bilan bog`liq bo`lgan munosabatidir. Qiziqishlar moddiy, ma`naviy, salbiy, ijobiy, davomli, qisqa muddatli bo`ladi. qiziqishlar asosida shaxsning dunyoqarashi va ishonch - e`tiqodlari tarkib topadi. Biz yoshlarda mehnatga ehtiyojni tarbiyalashimiz kerak. Inson shaxsi xulq - atvorining o`z motivlari bo`ladi. MOTIV - ma`lum ehtiyojlarini qondirish bilan bog`liq bo`lgan qandaydir faoliyatga moyillikdir. Agar ehtiyojlar inson shaxsi faolligining mohiyatini tashkil etsa, motivlar bu mohiyatning namoyon bo`lishidan iboratdir. Shaxsning ehtiyojlari motivlar bilan bog`liqdir. Shuning uchun motivlar bir - biridan ehtiyoj turiga qarab farqlanadi. Masalan, moddiy ehtiyojning qondirilishi bilan bog`liq bo`lgan motivlar yoki ma`naviy ehtiyojlarning qondirilishi bilan bog`liq bo`lgan motivlar bo`lishi mumkin. Motivlar anglanilgan va anglanilmagan bo`lishi mumkin. Anglanilmagan motivda odam nimanidir istaydi, ammo o`sha narsa nimaligini tasavvur qila olmaydi. Demak, motivlar inson shaxsi xulq - atvorini va turli faoliyatlarini harakatga keltiruvchi sabablardir. Xatti - harakatlarning muhim motivi e`tiqoddir. E`tiqod - shaxsni o`z qarashlari, tamoyillari, dunyoqarashlariga mos ravishda harakat qilishga undovchi anglanilgan ehtiyojlar tizimidir. Tilaklar ham xatti - harakat motivlari bo`lib, bu motivlarda mazkur vaziyatda bevosita bo`lmagan yashash va taraqqiy etish sharoitlarida ehtiyojlar o`z

ifodasini topadi. Faoliyatga nisbatan anglanilmagan mayllar orasida eng ko'p o'rganilgan masala ko'rsatma berishdir. Bu masala gruzin psixologi D.N. Uznadze va uning xodimlari tomonidan ishlangan. Ko'rsatma berish deganda, bilish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarni ma'lum usulda qondirishga tayyor turish tushuniladi. Masalan, talabalar o'qituvchilar beradigan topshiriqlarni bajarishga doim tayyor turadilar.

Shaxsning shakllanishi haqida ikki oqimning fikrini keltirish mumkin. Biogenetik yo'nalish va sotsiogenetik yo'nalish. Biogenetik yo'nalish tarafdorlarining fikricha, inson shaxsi va shaxsiy xususiyatlar faqat bitta omil, nasliy xususiyatlarning ta'siri bilan yuzaga keladi. Ular tashqi muhit va ta'lim - tarbiyaning rolini tan olmaydilar. Sotsiogenetik yo'nalish tarafdorlari eksperimentlarning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ushbu yo'nalish asoschilaridan biri Jon Lokk yangi tug'ilgan bolaning miyasini toza taxtaga o'xshatadi. Go'yoki, uning miyasiga kattalar xohlagan narsasini yozishlari mumkin. Ular tajribani ikkiga ajratadilar: tashqi va ichki tajriba. Yo'nalish tarafdorlarining fikricha, tashqi tajriba - bu moddiy dunyoni narsalarning ta'siridan hosil bo'ladigan bizning sezgilarimizdir. Ichki tajriba esa ruxning mustaqil harakatidir. Buni refleksiya deb ataydilar. Ular tashqi tajriba - sezgilar ichki tajriba-refleksiya bir - biriga bog'liq emas, degan fikrga o'tib ketdilar. Ular shaxsning tarkib topishi faqat ta'lim - tarbiyaning ta'siriga bog'liq deb, tashqi muhit va biologik omillarning ta'sirini tan oladilar. XIX asrning ikkinchi yarmida biogenetik qonun degan oqim kirib keldi. Biogenetik qonun biologiyaga xos bo'lgan ommaviy qonundur. Bu qonunga ko'ra, odam onaning qornidan to tug'ilguncha ko'p ming yillik evolyutsion taraqqiyotni bosib o'tadi, ya'ni uzoq evolyutsion taraqqiyot yo'lini qisqa muddatda takrorlaydi. Biologik qonun namoyondalaridan Myuler va Gekkellar odam tug'ilguncha butun evolyutsion taraqqiyotni qisqa muddatda takrorlar ekan, tug'ilgandan so'ng to shaxs bo'lib tarkib topguncha tarixiy taraqqiyotni takrorlaydi, degan fikrni bildirgan.

Inson shaxsining individual (ontogenetik) taraqqiyoti butun insoniyat tarixiy taraqqiyotining (filogenetik) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlashdir. Ular o'zlarining nazariyalarini bolalarning turli yosh davrlarida namoyon bo'ladigan faoliyat turlari orqali tushuntiradilar. Masalan: nemis psixologi V.Shternning fikricha, yangi tug'ilgan chaqaloq odam emas, balki sut emizuvchi hayvondir. U olti oylikka etganda maymunlar darajasiga etadi, ikki yosh bo'lganda maymunning odamga aylanish davrini eslatadi. 5 yoshda ibtidoiy pada bo'lib yashagan qadimgi odamlar darajasiga etadi. 1 - sinfga borganda ibtidoiy jamoatchilik davrini eslatadi. Kichik maktab yoshida esa o'rta asrlar davrini eslatadi. Yuqoridagi nazariyalar uchta

omilning (irsiyat, muhit, tarbiya) birgalikdagi ta`sirini tushuntirib bera olmadilar. Shaxsni shakllanishiga ushbu omillar birgalikda ta`sir etadi.

Irsiyat - orqali bolaga nerv tizimi, shartsiz reflekslar, tashqi ko`rinish, irsiy kasalliklar va layoqatlar o`tadi.

Ijtimoiy muhit - avvalo oila muhiti bo`lib, bola tug`ilgan kundan boshlab odamlar qurshovida ijtimoiy munosabatda bo`lib yashaydi. Shaxs tashqi muhitdan turli ijtimoiy munosabatlarni o`zining faoliyati orqali singdirib, o`z fe`l - atvoriga aylantirib boradi. Bolalarning hammasi o`yin faoliyati bilan shug`ullanadi. O`yin bolalar uchun dunyoni bilish qurolidir. U kattalarning xatti -harakatlariga taqlid qilish orqali o`ynaydi. Ijtimoiy muhitning shaxs shakllanishiga ta`siri kuchli. Masalan, yangi tug`ilgan bolani hayvonlar orasiga qo`shib qo`yilsa xatti - harakatlari hayvonlarnikiga o`xshaydi. Bola tili ham ijtimoiy muhitga bog`liq.

Irsiyat orqali ota - onasidan bolaga o`tadigan xususiyatlar yordamchi omil sifatida ta`sir etadi. Tug`ma layoqatlar nasliy yo`l orqali imkoniyat tarzida beriladi. Bu imkoniyatlar ma`lum sharoit bo`lgandagina ruyobga chiqadi. Bolaga nasliy, organizm, shartsiz reflekslar, analizator apparatlari, miya, tashqi belgilar, irsiyat orqali o`tadi. Demak, inson shaxsining tarkib topishiga aktiv ta`sir qiluvchi omillarning birinchisi tashqi ijtimoiy muhit, ikkinchisi odamga uzoq muddat davomida beriladigan ta`lim - tarbiya va uchinchisi odamga tug`ma ravishda beriladigan nasliy, ya`ni irsiy xususiyatdir. Bundan tashqari shaxsning shakllanishida shaxsiy faoliyat muhim ahamiyatga ega. Inson o`z - o`zini tarbiyalash, o`z - o`zini anglash orqali shakllanib boradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Har bir odam bilish, eshitish bilan birga malaka va odatlarni egallaydi. Malakalar bir necha xil bo`ladi (yozish, o`qish, yurish, musiqa chalish, sport va h. k.) Maqsadni ko`zlab biror ishni bajarish malakaga bog`liq. Malaka deb, avval ongli bajarilib keyinchalik avtomatlashgan xatti -harakatlarga aytiladi. Istalgan malakani qayta -qayta takrorlash natijasida hosil qilish mumkin. Malakalar sodda va murakkab bo`lishi mumkin. Masalan, mashina haydash, musiqa chalish, kasb egallash murakkab malaka, mix qoqish, o`tin arralash sodda malaka hisoblanadi. Malakalarni mashq qilish natijasida egallanadi. Shaxsda malakadan tashqari odatlar ham bo`ladi. Odat kishi qalbiga chuqur o`rnashib, uning ehtiyojiga aylanib qolgan harakatlardir. Masalan, ertalab turib yuvinish, ovqatlanish, ozoda yurish kabilar. Odatlar ijobiy va salbiy bo`ladi. Salbiy odatlarga yolg`on gapirish, ichish, chekish kabilar kiradi. Malaka va odatlarning nerv - fiziologik asoslarini shartli reflekslarning hosil bo`lish mexanizmi tashqil qiladi. Bu shartli refleks oddiy emas, balki dinamik stereotip

tarzidagi, ya`ni takrorlash natijasida mustahkamlangan shartli reflekslar birlashmasidan iborat. Masalan, bolalar bog`chaga o`rganguncha qiynaladi, chunki uydagi sharoitga ularda dinamik stereotip bo`ladi. Yangi hosil qilinadigan malakalar ilgari hosil qilinadigan malakalarga bog`liq bo`ladi. Ilgarigi malakalar ijobiy ta`sir qilsa malakalarning kuchayishi ko`zatiladi. Masalan, chet tillardan birontasini o`rgangan odam boshqa bir chet tili o`rganishda qiynalmaydi. Agar ilgarigi malaka salbiy ta`sir qilsa malakalar interferentsiyasi deyiladi. Masalan, bir sohada ishlagan odam butunlay boshqa sohaga o`tsa qiynaladi. Shaxs shug`ullanayotgan ishi bilan uzoq vaqt shug`ullanmasa malakalar so`nishi hodisasi ko`zatiladi. Buni malakalarning deavtomatizatsiyasi deyiladi. Malakalarning hosil bo`lish tezligi va mustahkamlanishi odamning yoshiga bog`liq. Masalan, til o`rganish 4 - 5 yoshda tez o`rganiladi. Hunar egallash 12 - 13 yoshda tez o`rganiladi. Malakalarning mustahkamligi qiziqishlarga, individual xususiyatlarga bog`liq, ya`ni asab tizimiga bog`liq bo`ladi. Masalan, xoleriklarda malaka tez, melanholiklarda sekin hosil bo`ladi. Demak, malakalar inson shaxsining tarkib topishiga katta ta`sir ko`rsatadi. Shaxs o`zining individualligida, ijtimoiy munosabatlarda belgilanadi. Atoqli psixolog K.K Platonov shaxsni "Konkret odam yoki dunyoni yaratuvchi sub`ektdir", L. L. Bojovich esa "Odam o`zining anglash jarayonida yaxlitligini idrok qiladi, unda "Men" degan tushuncha paydo bo`ladi", deb ta`kidlaydilar. A.N. Leont`evning "Faoliyat. Ong. Shaxs" degan kitobida shaxs haqida ajoyib fikrlar bor: "Bu oliy olam birligi, hayotda doimiylikni saqlaydi, har qanday sharoitda shaxsligicha boshqalar ko`z o`ngida va o`zining ko`z o`ngida qoladi."

REFERENCES

1. Ta`lim to`g`risida. O`zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O`zbekiston, 2020.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O`zbekiston, 2017.
3. 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi// <https://www.lex.Uz>
4. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi// <https://www.lex.Uz>
5. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
6. Дружинина В.. "Психология ". Учебник. "Питер", 2003.
7. Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - R.
8. Duane P.Schults. Theories of Personality. Wadsworth, adivision of Thomson Learning, Inc. Copyright © 2005.-550p.